



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:  
[dav\\_ekspertiza@mail.ru](mailto:dav_ekspertiza@mail.ru) [www.mc.uz](http://www.mc.uz) [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana: 17-11-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 74488**

**Obyekt nomi** «Toshkent shahar, Uchtepa tumani, "Vatanparvar" MFYda ko'p qavatli uylarning qiyofasini yaxshilash hamda atrof muhitni obodonlashtirish.»

**Buyurtmachi** - Toshkent shahar hokimiyati "Yagona buyurtmachi xizmati" IK.

**Bosh loyihiachi** - "Lotus Art" MChJ.

**Litsenziya** АЛ-001639-son, 16.02.202 y. Qurilish vazirligi.

**Moliyalashtirish manbai** - Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan.

**Bosh pudratchi** - Tanlov asosida aniqlanadi.

**Qurilish turi** Yangi qurilish va obodonlashtirish ishlari.

**Murojaat raqami:** № 71745

**1. Loyihalash uchun asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-408-son Qarori.

Xalq Deputatlari Toshkent shahar kengashining 31.10.2022-yildagi VI-72-281-14-0-K/22-son qarori

Toshkent shahar Hokimining 01.11.2022-yildagi 1126-14-0-Q/22-son qarori.

Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 10-noyabrdagi 1726-1726262-54144-son "Arxitektura rejalashtirish topshirig'i" (yojlashtirish va muhandislik tarmoqlarini loyihalashtirish uchun).

2022-yilda Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinnbosari tomonidan tasdiqlangan, Uchtepa taman hokimi va "Vatanparvar" MFY raisi bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.

2022-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi

Toshkent shahar hokimiyati "Yagona buyurtmachi xizmati" IKning 14.11.2022-yildagi 4-4972-son xati.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Ekspertiza ko'rigiga qadar obyektlarning joriy ta'mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqsonli dalolatnomaga asosan tayyorlangan smeta hujjatlari. Umumiy qiymati 15% QQS bilan hisoblanganda 4 555 555,000 ming so'mni, me'yoriy mehnat sarfi resurs smetasi bo'yicha -18 843,34 kishi/soatni tashkil etadi.

Obyekt yig'ma lokal resurslarining ro'yxati (Ishlatiladigan mashina va mexanizmlar hamda qurilish materiallar ro'yxati).

Loyihaning umumiy tushintir xati.

Loyha chizmalari (bosh reja, ES, VN).

“Prismtrade” MChJning 16.11.2022-yildagi tijorat taklifi.

### **3. Loyha yechimlarining qisqacha mazmuni**

25, 26, 30 va 31-uylarning 1100 kv.m ichki yo'llarini ta'mirlash; 24, 25, 26, 29 va 33-uylar yon tarafida 1000 kv.m avtoturargoxlar tashkil etish, 31-uyning oldi tarafi, 33-uy orqa tomoni, 34-uyning oldi va orqa tomoni 36, 37, 38-uylarning oldi tomonlarida 750 m. irrigatsiya tarmoqlarini ta'mirlash, 37, 28, 29 va 30-uylar yon va oldi taraf kismiga 3 ta sport maydonchalari qurish, 15, 16, 24, 24a, 26, 27, 28 va 29-uylar oralig'iga yoritish moslamalarini o'rnatish, 36-uy orqa tomoni yoritish moslamasi o'rnatish, mahalla hududidaa 27 ta uyning oldi va yon taraflariga 108 dona kuzatuv kameralarini o'rnatish ishlarini o'z ichiga oladi.

Ishchilarning bir soat uchun o'rtacha ish haqi, obyektning dastlabki bahosini aniqlashda hudud bo'yicha quruvchilarning o'rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanib, normativ mehnat sarfini 1 kishi-soat ko'rsatkichining joriy narxiga (so'm) ijtimoiy sug'urta to'lovlari (12%) bilan qo'shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati -32 893,8 soat/so'm belgilangan.

Qurilish materiallari va mahsulotlari, konstruktsiyalar hamda uskunalar uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori -3,0 %.

Pudratchining boshqa xarajatlari – 17,27 %.

Qo'shimcha qiymat solig'i – 15%.

Binoning yakuniy harajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'iga asosan videokuzatuv tizimi, elektr ta'minoti ko'zda tutilgan.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagи 256-son qarori talablariga riosa qilinsin. Obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Loyha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga riosa qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi “Loyha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining” Xulosasi olinsin.

### **6. Ekspertiza natijalari.**

Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida to'g'rilanib qayta to'ldirildi:

- ekspertiza tekshiruvi hamda smetadagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda 15 % QQS bilan hisoblanganda 46 954,257 ming so'mga kamaytirildi;

- dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamayishi yoki pasayganligi resurs smeta me'yorlari, ish hajmga aniqlik kiritilishi hamda boshqa xarajatlarni aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Sharhnomalar bo'yicha import texnologik uskunalarini sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarini sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonun talablariga riosa etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq riosa qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

Buyurtmachi, texnologik jihozlar o'rnatgandan so'ng, obyekt foydalanishga topshirilganiga qadar, mazkur ob'yekti ro'yhatga olinib, "Sanoat havfsizlik inspeksiyasi" bilan kelishilsin.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga riosa qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrda qarori 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagagi 255-son qarori talablariga riosa etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarning yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlari talablariga qat'iy riosa qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda qarorining 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlari hamda o'rtacha ish haqidani foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlарini tasdiqlash huquqiga

egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

## **7. Xulosalar.**

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar, Uchtepa tumani, "Vatanparvar" MFYda ko'p qavatlari uylarning qiyofasini yaxshilash hamda atrof muhitni obodonlashtirish" ishlari amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachning boshqa xarajatlarisiz 15% QQS bilan hisoblanganda 4 508 600,743 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- qurilish materiallari va mahsulotlari, konstruktsiyalar hamda uskunalar uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar- 2 190 327,117 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda - 692 922,187 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar- 115 702,248 ming so'mni;
- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel invertar jihozlar-391 146,246 ming so'mni;
- obyektni sshg'irtalash xarajatlari- 12 505,654 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%)-517 918,933 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (15 %)- 588 078,358 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari "Shaffof qurilish" MAT (0,05%)-2 254,300 ming so`mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtaida shartnomaga tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-sen Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-sen qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi PQ-332-sen Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobil xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

**Bosh mutaxassis:** Mardonov Shoxrux Isroil o'g'li

**Ishtirokchi ekspertlar:**

GULYAMOV NADJIMITDIN SHARAFUTDINOVICH

TASHMUXAMEDOVA IRODA IBRATOVNA

ADJIGAFAROVA REMZIYE ABLAYEVNA

шартнома [Faylni ko'rish](#)

шартнома [Faylni ko'rish](#)

